



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

AXLOQ, AXLOQIY TARBIYA VA MA'NAVIY KAMOLOT TUSHUNCHALARINING ILMIY MOHIYATI

Sadriddinova Feruza Meliyevna

Jizzax davlat pedagogika universiteti, dotsent

Mansurova Maftuna Alisher qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti, magistrant

Annotatsiya

Mazkur maqolada axloq, axloqiy tarbiya va ma'naviy kamolot tushunchalarining ilmiy-nazariy mohiyati tahlil qilinadi. Axloq shaxsning jamiyatda o'zini tutish me'yorlarini belgilovchi ijtimoiy hodisa sifatida yoritiladi. Axloqiy tarbiya shaxsda ijtimoiy mas'uliyat, vijdon, halollik va insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish jarayoni sifatida talqin etiladi. Ma'naviy kamolot esa shaxsning axloqiy, intellektual va ruhiy jihatdan barkamollikka erishish darajasini ifodalaydi. Tadqiqotda mazkur tushunchalarning o'zaro uzviy bog'liqligi, ularning ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni hamda shaxs kamolotidagi ahamiyati ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so'zlar: axloq, axloqiy tarbiya, ma'naviy kamolot, shaxs tarbiyasi, ijtimoiy qadriyatlar.

НАУЧНОЕ СОДЕРЖАНИЕ И СУЩНОСТЬ ПОНЯТИЙ МОРАЛИ, ПРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ И ДУХОВНОГО РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ

Садриддинова Феруза Мелиевна

Джизакский государственный педагогический университет, доцент

Мансурова Мафтуна Алишер кизи

Джизакский государственный педагогический университет, магистрант

Аннотация

В статье анализируется научно-теоретическая сущность понятий морали, нравственного воспитания и духовного становления личности. Мораль рассматривается как социальное явление, определяющее нормы поведения человека в обществе. Нравственное воспитание интерпретируется как целенаправленный процесс формирования у личности таких качеств, как ответственность, совесть, честность и гуманизм. Духовное становление характеризуется как уровень морального, интеллектуального и духовного развития личности. В исследовании раскрывается взаимосвязь данных понятий, их роль в образовательном процессе и значение в формировании гармонично развитой личности.

Ключевые слова: мораль, нравственное воспитание, духовное развитие, личность, социальные ценности.

THE SCIENTIFIC CONTENT AND ESSENCE OF THE CONCEPTS OF MORALITY, MORAL EDUCATION, AND SPIRITUAL MATURITY

Sadriddinova Feruza Meliyevna

Jizzakh State Pedagogical University, Associate Professor

Mansurova Maftuna Alisher qizi

Jizzakh State Pedagogical University, Master's Student

Abstract

This article examines the scientific and theoretical essence of the concepts of morality, moral education, and spiritual development. Morality is considered a social phenomenon that defines norms of human behavior within society. Moral education is interpreted as a purposeful process aimed at developing personal qualities such as responsibility, conscience, honesty, and humanism. Spiritual development is described as the level of moral, intellectual, and spiritual maturity of an individual. The study highlights the interrelationship of these concepts, their role in the educational process, and their significance in the formation of a well-rounded personality.

Keywords: morality, moral education, spiritual development, personality, social values.

Bugungi globallashuv va axborotlashgan jamiyat sharoitida shaxsning ma'naviy-axloqiy kamoloti dolzarb pedagogik va ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti bevosita barkamol, axloqan yetuk va ma'naviy jihatdan boy insonlarni tarbiyalash bilan uzviy bog'liqdir. Shu bois axloq, axloqiy tarbiya va ma'naviy kamolot tushunchalarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning mazmun-mohiyatini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, axloqiy tarbiya va ma'naviy kamolot masalalari zamonaviy ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida shaxsni har tomonlama rivojlantirish, unda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish belgilangan. Mazkur hujjatda ta'lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki shaxs tarbiyasi, uning ijtimoiy faolligi va mas'uliyatini yuksaltirishga qaratilgan uzluksiz jarayon sifatida talqin etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishga doir farmon va qarorlarida axloqiy tarbiya masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi qarorda "jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi asosida jamiyatda uzluksiz ma'naviy -marifiy tarbiya va targ'ibot - tashviqot ishlarini tashkil etishning strategik yo'nalishlari, ta'sirchan, kreativ va innovatsion uslublarini ishlab chiqildi. Ushbu me'yoriy-huquqiy hujjatlar axloqiy tarbiya va ma'naviy kamolot masalasining davlat siyosati darajasida muhim strategik vazifa sifatida qaralayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish, tarbiyaviy komponentni kuchaytirish va yosh avlodda yuksak axloqiy madaniyatni shakllantirish asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Mazkur konsepsiyada ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish bilan bir qatorda, shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiluvchi mexanizmlarni takomillashtirish zarurligi alohida qayd etilgan. Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda axloqiy tarbiya shaxsda ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari, axloqiy ong, e'tiqod va qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan uzluksiz pedagogik jarayon sifatida talqin etiladi. Ma'naviy kamolot esa shaxsning ichki dunyosi, e'tiqodi, dunyoqarashi, maqsad va ideallarining yuksalib borishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ongli ravishda o'zlashtirishi jarayoni sifatida izohlanadi. Ushbu ikki tushuncha o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiradi va boyitadi. Axloqiy tarbiya ma'naviy kamolotning muhim mexanizmi bo'lsa, ma'naviy kamolot axloqiy tarbiya natijasining yuksak bosqichi sifatida namoyon bo'ladi.

Axloq — bu jamiyat tomonidan tan olingan va shaxs xulq-atvorini tartibga soluvchi me'yorlar, qadriyatlar, tamoyillar majmuidir. U insonlarning o'zaro munosabatlarida, jamiyatga, mehnatga, Vatanga va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini belgilaydi. Axloq ijtimoiy ongning muhim shakli bo'lib, tarixiy rivojlanish jarayonida shakllanadi va jamiyat ehtiyojlari asosida takomillashib boradi. Ilmiy manbalarda axloq vijdon, burch, adolat, mas'uliyat, halollik, insonparvarlik kabi kategoriyalar orqali ifodalanadi. Axloqiy me'yorlar huquqiy me'yorlardan farqli ravishda majburiy jazoga emas, balki shaxsning ichki e'tiqodi va vijdoniga tayanadi. Shu jihatdan axloq shaxsning ichki ma'naviy dunyosini belgilovchi asosiy omil.

Axloqiy tarbiya — bu shaxsda axloqiy ong, axloqiy his-tuyg'u va axloqiy xulq-atvorni

shakllantirishga qaratilgan uzluksiz pedagogik jarayondir. Uning asosiy maqsadi jamiyat talablariga mos, ijtimoiy mas'uliyatli, ma'naviy yetuk insonni voyaga yetkazishdan iborat.

Axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- shaxsda axloqiy bilim va tushunchalarni shakllantirish
- ijobiy axloqiy fazilatlarni rivojlantirish
- axloqiy me'yorlarga rioya qilish odatini hosil qilish
- salbiy xulq-atvor ko'rinishlariga nisbatan immunitetni kuchaytirish.

Axloqiy tarbiya oilada boshlanib, ta'lim muassasalari va ijtimoiy muhitda davom etadi.

Bu jarayonda pedagog shaxsiy namuna, muloqot madaniyati va tarbiyaviy texnologiyalar orqali muhim rol o'ynaydi. Ma'naviy kamolot — shaxsning axloqiy, intellektual, estetik va ruhiy jihatdan yuksak darajada rivojlanish holatidir. Ma'naviy kamolotga erishgan inson jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo'yadi, mustaqil fikrlaydi va ijtimoiy mas'uliyatni chuqur his etadi. Koshifiyning asarlaridagi talim – tarbiya , axloq masalari ko'pchilik uchun andoza, namuna , odob me'yori sifatida qisqa asosli, lo'nda qilib yozilgan. Koshifiyning fikricha inson fazilatli uning egallagan ta'lim – tarbiyasiga bog'liq. Shundagina u odobli hisoblanishi mumkin. “ Shayx Omuliy deydikim, olam komil inson haqiqati tufayli barqarordir, zero falaklar uning nafasi bilan aylanurlar, mulku malakut undan talim olurlar. Odob – bu qalbni yomon so'zlardan va nojo'ya xulqdan saqlay olish, o'zini va o'zgalarni xurmat qila bilishdir” – deydi olim. Muomala odobida kishining ko'z qarashi nigohi, so'zsiz harakatlari ham muhim rol o'ynaydi. Axloqiy yetuklik muomila odobini egallashtirishdan boshlanadi. Axloqiy madaniyatning o'ziga xos munosabatlar ifodasi - etiketdir. Axloqiy madaniyat muayyan holat uchun faqat bir xildagi qoidalashtirilgan xatti - harakatlarini taqazo etadi. Axloqiy madaniyati shu qadar kengki, u oddiy insoniy munosabatlarda xalqaro miqyosda qabul qilingan muomila qonun qoidalargacha o'z ichiga oladi Axloqiy tarbiyaning aqliy - ma'naviy va jismoniy tarbiya bilan qo'shib olib borish ham maqsadga muvofiqdir. Shaxsning axloqiy tarbiyasi uning muomila odobi , etiket qoidalariga rioya etishi, kasbiy odobi hamda o'zgalarga nisbatan munosabatning barcha turida ko'rish mumkin. Axloqiy tarbiya tuzilmasi uch omildan iborat:

- axloqiy ong;
- axloqiy hissiyot;
- xatti harakat

Axloqiy tarbiya jarayonida bu omillar doimo birga ishtirok etib, bir birini taqazo etadi. Ilmiy manbalarda ma'naviy kamolot shaxsning ma'naviy-axloqiy fazilatlari, e'tiqodi, dunyoqarashi va ijtimoiy xulq-atvorining uyg'un rivojlanish jarayoni sifatida talqin etiladi. Axloq ulamosi insonlarning xulqlarini ikkiga bo'lmishlar, agar nafs tarbiyat topib yaxshi ishlar qilsa , yaxshillig'a tavsif berib “yaxshi xulq”, agar tarbiyasiz o'sub yomonlikka tavsif bo'lib “yomon xulq” deb atalur. Pedagogik tadqiqotlarda ma'naviy kamolot quyidagi asosiy komponentlardan iborat tizim sifatida qaraladi:

Ma'naviy qadriyatlar – vatanparvarlik, insonparvarlik, bag'rikenglik kabi fazilatlarning shakllanganligi.

Dunyoqarash va e'tiqod – hayotga ongli munosabat va mustahkam maqsadlar tizimi.

Xulq-atvor madaniyati – axloqiy me'yorlarning kundalik faoliyatda ifodalanishi.

O'zini rivojlantirish ehtiyoji – shaxsning ma'naviy o'sishga bo'lgan ichki intilishi.

Buyuk mutafakkir A. Avloniy ta'kidlaganidek, tarbiya shaxs hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, ma'naviy kamolotning asosiy vositasidir. Ma'naviy kamolot barkamol shaxs konsepsiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. Barkamol shaxs:

- ijtimoiy faol
- mustaqil fikrlovchi
- axloqan mas'uliyatli
- jamiyat rivojiga hissa qo'sha oladigan shaxsdir.

Shu bois, ta'lim jarayonida bilim berish bilan bir qatorda ma'naviy tarbiyaga alohida e'tibor qaratish pedagogik zarurat sifatida namoyon bo'ladi. Axloqiy tarbiyaning eng buyuk sharti shundaki, bolalar yaxshi va yomon xulqlarni o'z uylaridan, ko'chadagi o'rtoqlaridan, maktabdagi o'quvchilardan qabul qiladilar.

Xulosa qilib aytganda, shaxsning kamol topishida axloqiy va manaviy tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi. Axloqiy madaniyat qamrovi kengki u oddiy inson munosabatlaridan muomila qonun qoidlarini o'z ichiga oladi. Axloqiy yetuklik muomila odobini egallashdan boshlanadi. Tadqiqot jarayonida axloqiy tarbiyaning tarixiy rivojlanish bosqichlari tahlil qilinarkan, Sharq mutafakkirlarining axloqiy qarashlari, xalq pedagogikasi an'analari hamda jadidchilik harakati namoyandalarining, xususan, Abdulla Avloniy pedagogik merosining bugungi kun ta'lim-tarbiya jarayoni uchun ham dolzarb ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Avloniy tomonidan ilgari surilgan axloq, ma'naviyat va tarbiya masalalariga oid g'oyalar zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'un holda talabalarda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish uchun mustahkam nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, axloqiy tarbiya jarayoni faqat ta'lim muassasalari doirasidagina emas, balki oila, mahalla va keng ijtimoiy muhit bilan hamkorlikda olib borilgandagina samarali bo'ladi. Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, interfaol mashg'ulotlar, loyiha va munozaralar talabalarning axloqiy ongini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi Farmoni. – Toshkent, 2019.
2. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. Toshkent. 2001
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent. 2023
4. F.M. Sadriddinova. M. A. Mansurova. Jadid ma'rifatparvarlarining tarbiya borasidagi qarashlari. Zamonaviy yoshlarning ilmiy va innovatsion tashabbuslari ; yangicha yondashuvlar va transformatsiyalar. 2025- yil 27- mart.